

## DIFFERENTIAL YONDASHUV TURLI XIL O'QUVCHILARNI JALB QILISH USULI SIFATIDA

*Muxsinova Kumushxon Suhrob qizi*

*Buxoro davlat pedagogika instituti "Pedagogika va psixologiya"  
yo'nalishi magistranti*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada differentsial yondashuv turli xil o'quvchilarni jalg qilish usuli sifatida imkoniyatlari, bugungi kunda pedagoglar tayyorlash tizimini takomillashtirish, pedagoglar mahoratini oshirish, pedagogik mahorat va qobiliyatlarni rivojlantirishga ega ekanligi yoritib berilgan.

**Kalit so'z va iboralar:** pedagoglar mahorati, ta'limga rivojlanish, ta'limga tarbiya, amaliy ko'nikmalar, uzlucksiz ta'limga, individual sifatlar, iqtisodiy taraqqiyot, ta'limga standartlari, ta'limga tarbiya, ilmiy-metodik, sub'yektiv yangilik.

### ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫЙ ПОДХОД КАК МЕТОД ПРИВЛЕЧЕНИЯ РАЗНЫХ СТУДЕНТОВ

**Аннотация:** В данной статье подчеркивается, что дифференцированный подход как метод привлечения разных студентов имеет потенциал для совершенствования системы подготовки педагогов, повышения квалификации педагогов, развития педагогических навыков и умений.

**Ключевые слова и фразы:** мастерство педагогов, образование и развитие, воспитание и обучение, практические навыки, непрерывное образование, индивидуальные качества, экономическое развитие, образовательные стандарты, образование и подготовка, научно-методические, субъективные инновации.

### DIFFERENTIAL APPROACH AS A METHOD OF ENGAGING DIFFERENT STUDENTS

**Abstract:** In this article, it is highlighted that the differential approach as a method of attracting different students has the potential to improve the training system of pedagogues, to improve the skills of pedagogues, and to develop pedagogical skills and abilities.

**Key words and phrases:** skills of pedagogues, education and development, education and training, practical skills, continuous education, individual qualities, economic development, educational standards, education and training, scientific - methodical, subjective innovation.

## KIRISH

Zamonaviy ilm-fan va pedagogik amaliyotda ta'lim deganda, ta'lim oluvchiga avvalgi avlodlarning ijtimoiy-madaniy tajribasi maqsadga yo'naltirilgan tarzda o'tkazish qilish hamda mazkur tajribani o'zlashtirishni tashkil qilish, shuningdek, mazkur tajribani turli vaziyatlarda qo'llash imkoniyati va tayyorligi bilan bog'liq faol ishharakat tushuniladi. Ta'lim olish, albatta, o'z sharti sifatida mazkur tajribani o'zlashtirish bo'yicha o'rgatish va ta'lim berish jarayonlarini taklif qiladi.

Tarbiya insonga muayyan qadriyatlar, xulq-atvor prinsiplari, baholash tizimi, o'ziga, atrofdagi odamlarga, mehnatga, jamiyatga munosabatni shakllantirish maqsadga yo'naltirilgan ta'sir o'tkazishni nazarda tutadi. Ta'lim-tarbiya butun ta'lim muhitining bir butun ta'siri sifatida ko'rib chiqiladi, vaholanki tahliliy va pedagogik maqsadlarda u axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy va boshqalarga ko'ra taqsimlanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonini "shakllanish", "tiklanish", "ijtimoiylashuv", "tarbiya", "rivojlanish" pedagogik tushunchalarni ularning o'zaro aloqadorligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqamiz. Agar ijtimoiylashuv – bu shaxsning muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllanish jarayoni bo'lib, uning jarayonida inson muayyan ijtimoiy tajribaga ega bo'lsa, u holda tarbiya muayyan ijtimoiy-pedagogik idealga mos ravishda pedagogik ta'sir yordamida shaxsni shakllantirish bilan bog'liq maqsadga yo'naltirilgan jarayondir. Shakllanish deganda shaxsning real voqelik bilan o'zaro ta'sirga kirishishi, shaxs tarkibiy tuzilishida jismoniy va ijtimoiy-psixologik yangilanishlarning xosil bo'lishi tushuniladi.

Rivojlanishning pedagogik qimmatlilagini "inson organizmida tabiiy modda almashinushi, shuningdek, uning hayot faoliyati oqimiga jalb qilinganligi, ayniqsa ijtimoiy-ijobiy faoliyat, muloqot va munosabatlarning maxsus pedagogik tashkil etilgan turlariga jalb qilinganligi bilan bog'liq intiluvchan-ilg'or, miqdoriy va sifat, ruhiy somatik va ma'naviy o'zgarishlari" tushuniladi.

Tiklanish – bu "ta'lim oluvchi tomonidan o'z xulq-atvorini mustaqil ravishda qurish, o'z xattiharakatlarini anglash va nisbatan barqaror qadriyatli tanlovni amalga oshirish bo'yicha sa'yharakatlarini anglatuvchi" atamadir.

Zamonaviy uzlusiz kasbiy ta'limni rivojlantirishda asosiy tamoyillarni tahlil qilish ularning har biri integrasiya g'oyasini faollashtirganini ko'rsatdi. U pedagogning suggestiv qobiliyatlarini rivojlantiruvchi ta'lim tizimining yaxlitligi, mutaxassis shaxsiyatini shakllantirish, ta'limning uzlusizligi to'g'risidagi qarashlar, shaxs ta'limi va tarbiyasi pedagogik jarayonlarining yagonaligini tasdiqlash, ta'limni standartizasiya qilish, institusiyalashgan ta'lim va mustaqil ta'lim jarayonlarining uzviy bog'liqligida o'z aksini topadi. Bir vaqtning o'zida uzlusiz ta'limda differensiyalashga bo'lgan intilish kuzatilib, u ta'limning yarim funksionalligi, mustaqil ta'lim, mustaqil o'qish, mustaqil tarbiyalash, ta'lim oluvchilarining sub'yektligini tan olish, ta'lim dasturlari va masalalarining turli-tumanligi, sub'yektlar nuqtai nazarining ko'p sonligi,

innovasiyaviylik tushunchasi xos bo'lib, unga ko'pgina pedagogik ob'yektlar tegishlidir.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya**

Uzluksiz ta'lilda ilg'or tamoyillarni tahlil qilishning ko'rsatishicha, differensiallash hodisasi mavjud bo'lib, ular mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga egadir, bu jihat kelgusida ijtimoiy soha mutaxassislarining uzluksiz ta'lilda differensiyalashgan konsepsiyanini ishlab chiqishda hisobga olinadi

Differensial yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirish bo'yicha modellashtirishni barcha bosqichlarda qo'llash hamda pedagogik faoliyatda o'zgarishlar dinamikasi uning uzluksiz kasbiy rivojlanishining barcha bosqichlarida aks ettiriladi. Har bir bosqichda pedagogik faoliyatning tarkibiy qismlari aniqlanadi (strategik maqsadlar va motivlar asosida boshqariladigan aniq faoliyat turlari, taktik maqsadlarga yo'naltirilgan kasbiy harakatlar, harakatlarni aniq sharoitlarda bajarish hamda ularning samaradorligini baholash yo'llari va boshqalar), pedagogning professional funksiyalarini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi (motivasiya, maqsadli va tezkor) va rivojlantirishga olib keladi.

Oliy ta'lilda pedagogik faoliyatga tayyorgarlikning tashkiliy va asosli modeli yagona sikl (tashqi va ichki) bo'lib, alohida modullardan iborat: mutaxassislarni tayyorlashda manfaatdor tomonlarning ehtiyojlari, ta'lim dasturining asosiy maqsadlarini shakllantirish, ta'lim maqsadlariga erishish uchun ta'limning integrasiyasi va differensiasiysi), natijalarni aniqlash, ta'lim natijalarini baholash, ta'lim dasturlari rivojlanganlik darajasini aniqlash, ta'lim jarayonini tashkil etish, ko'p funksiyali ta'lim makonini qurish, ta'lim sifatini baholash (ichki va tashqi), ta'lim natijalari va keyingi kasbiy tayyorgarlik istiqbollari.

Bo'lajak o'qituvchilarda suggestiv qibiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartsharoitlarini ko'rib chiqaylik:

- maqsadlar: umumpedagogik va kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish;
- yondashuvlar: tizimli, differensial, amaliyatga yo'naltirilgan, kompetentlikka asoslangan;
- tamoyillar: ta'limning uzluksizligi, ko'p o'zgaruvchanligi, integrasiyasi, insonparvarlashuvi va demokratlashuvi;
- innovasion mazmunli: mutaxassisligi bo'yicha o'quv-uslubiy majmuaviy;
- innovasion vositalar;
- innovasion tashkiliy shakllar: turli idoraviy bo'ysunuvdagagi ijtimoiy muassasalarda amaliy mashg'ulotlar;
- pedagogik jarayonning didaktik shart-sharoitlari: yaxlitlik, integrativlik, differensial, innovasion mazmunli, moslanuvchanlik, samaradorlik;
- o'zlashtirish darajalari: faoliyatli, reproduktiv, evristik, konseptual-kreativ, intelektualtashabbusli;

- natijalar - akademik va professional yo'naltirilgan bilim va kompetensiyalar, asosiy amaliy ko'nikmalar muvozanatiga erishish, intellektual va ijodiy tashabbusni shakllantirish, professional o'z-o'zini rivojlantirish, uzlusiz o'z-o'zini takomillashtirish.

Bo'lajak o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirish har bir o'quv kursida bosqichma-bosqich shakllantirishga muvofiq amalga oshiriladi.

O'qituvchi maqomini ro'yobga chiqarish bosqichida (birinchi kurs) shaxsning yangi ijtimoiy roli, kasbning umumiy ilmiy asoslarini o'zlashtirish bilan bog'liq yaxlit rivojlanishi kuzatiladi. Shaxsning boshqalar ta'siriga moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Bu davrda talabalar odatda o'z rollarini farqlamaydilar. Talabalar jamoa hayotining o'ziga xos shakllari bilan tanishadilar. Bu bosqichda talabalar yangi ijtimoiy aloqalarni o'rnatadilar, turli sharoitlarga moslashadilar.

Suggestiv o'z-o'zini bilish bosqichida (ikkinci kurs) talabalar shaxsining ixtisoslashtirilgan rivojlanishi davom etadi, ularning madaniy talab va ehtiyojlari shakllanadi. Ular ishonch va mustaqillikka erishadi, nafaqat ta'lim va tarbiyaning barcha shakllariga kiritiladi, balki jamoat tashkilotlarida ham faol ishtirok etadi. Bu davrda asosan umumkasbiy fanlarga e'tibor ortadi.

Suggestiv o'z-o'zini aniqlash bosqichida (uchinchchi kurs) talabalarning ixtisoslik o'quv fanlariga bo'lgan diqqati mustahkamlanib, ularning kasbiy faoliyat motivlari mustahkamlanadi. Bu bosqichda ilmiy izlanishga qiziqish ortadi va tanlangan kasbning xususiyatlari o'rganiladi. Shu bilan birga, talabalarning ijtimoiy faolligi rivojlanadi va o'z-o'zini tashkil etish darajasi ortadi.

Suggestiv tayyorlik bosqichi (to'rtinchchi kurs) pedagogik faoliyatga bo'lgan munosabat bilan bog'liq bo'lib, mutaxassis ishining usul va texnologiyalarini o'zlashtirishga undaydi. Bu bosqichda talaba pedagogik tajribani egallash uchun amaliyot joyini tanlashga ko'proq ongli ravishda yondashadi. Bo'lajak

o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirish xususiyatlarini, o'ziga xos sifatlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

### Natijalar

Bo'lajak o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini nazariy, amaliy, ilmiy-tadqiqot va umummadaniy yo'nalishlar tashkil etadi. Nazariy yo'nalish Davlat ta'lim standartini tashkil etuvchi ta'lim mazmunining barcha bloklarini amalga oshiradi, amaliy yo'nalish turli amaliyot turlari – ta'limiy amaliyot, sanoat amaliyoti va stajyorlik amaliyoti bilan ifodalanadi, tadqiqot yo'nalishi ta'lim tizimida tadqiqot faoliyatining tashkiliy asoslarini ochib beradi. Unga ko'ra u ta'lim jarayoniga qo'shilishi, unga qo'shimcha yoki unga parallel bo'lishi mumkin. Umummadaniy yo'nalish turli xil uyushghan faoliyat turlari bilan ifodalanadi: madaniy va dam olish, kasbhunarga yo'naltirish, fuqarolik huquqi, axborotni anglash, sog'liqni saqlash. Barchasini amalga

oshirish natijasi ijtimoiy sohada professional raqobatbardosh mutaxassis tomonidan namoyon bo‘ladi, ularning sifati turli vakillik shakllarida - davlat attestasiyasida, portfolio shaklida namoyon bo‘ladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarini rivojlantirish oliy pedagogik ta’limda amalga oshiriladigan faoliyatning ajralmas tizimi sifatida o‘ziga xos tendensiyalari, tamoyillari, maqsadlari, vazifalari, mazmuni, ish shakllari va usullari, shuningdek, samaradorligini oshirish vositalari mavjud. Shu bilan birga, o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha ishlashning maqsadlari, vazifalari, mazmuni, shakllari va usullari shaxs rivojlanishining umumiyligini qonuniyatlariga mos kelishi lozim. Ro‘yxatdagi tarkibiy qismlarning muvofiqlashtirilishi, iyerarxiyasi va ajralmas tuzilishda ishlashi har qanday pedagogik tizimda boshqaruv elementlari mavjudligini taxmin qiladi. Bu esa differensial yondashuvni amalga oshirish uchun talabani pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimiga to‘liq taalluqlidir. Bu esa tizimning muayyan sharoitlarda barqaror ishlashiga mos keladigan nazariy asoslarni ishlab chiqishni ham o‘z ichiga oladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda suggestiv qobiliyatlar, ya’ni o‘quvchilar bilan ishlashga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi ilmiy xarakterga egalik, uzluksizlik, sistemalilik va nazariy va amaliy mashg‘ulotlar birligi tamoyillariga asoslanishi lozim.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarini rivojlantirishning ilmiy xarakteri - bu zamonaviy ilmiy yutuqlar, ilg‘or pedagogik tajribalar, o‘qitish va tarbiyalashning yangi konsepsiyalari va albatta, ilmiy pedagogik tadqiqotlar usullarini o‘rganish psixologikpedagogik fanlar tarkibidagi aksidir. Tadqiqotimiz davomida shunga amin bo‘ldikki, bo‘lajak o‘qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarini rivojlantirish nazariy jihatdan o‘ziga xoslik kasb etsada, ammo amaliy faoliyatda muammolar mavjudligi sezilib qolmoqda. Bu esa ta’lim nazariyasi va amaliyotining birligi tamoyiliga ustuvor ahamiyat berilmasligi sabablidir.

O‘rganilayotgan muammoning asosiy maqsadi sifatida biz bo‘lajak o‘qituvchilarda suggestiv qibiliyatlarini rivojlantirish tizimini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishni istiqbolli ish deb bilamiz. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan tizimning ishlashi maqsadga erishish, mumkin bo‘lgan alternativalar orasida maqbul yo‘llarni tanlash jarayoniga bo‘ysundirilgan. Ta’lim tizimi natijasi deganda biz bo‘lajak o‘qituvchilarda suggestiv qibiliyatlarini rivojlantirish jarayonida ifodalanadigan hamda talabaning kasbiy rivojlanishidagi ma’lum bir qadamni tushunamiz.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda suggestiv qibiliyatlarini rivojlantirishni ta’minlaydigan tizim tarkibini ko‘rib chiqamiz. Ma’lumki, bugungi kunda mehnat bozori ob’yektiv ravishda ijtimoiy va kasbiy jihatdan vakolatli, dialektik fikrlaydigan, chuqur bilimga ega, madaniyatni biladigan va raqobatbardosh shaxsni talab qilmoqda. Shu munosabat

bilan biz differensial yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirish mazmuni quyidagilarni nazarda tutishi kerak deb hisoblaymiz:

- ushbu faoliyat turini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarning universal tizimini shakllantirish;

- oliv ta'lim asosiy rejasining majbuliy fanlari bilan bir qatorda tanlov kurslari tashkil etish; -o'qituvchi va talabaning birligdagi samarali faoliyatida amalga oshiriladigan tadqiqot va individual o'quv dasturlarining ustuvorligiga e'tibor qaratish, uning haqiqiy ta'lim imkoniyatlari va qobiliyatlarining o'ziga xosligiga yo'naltirilgan bo'lajak pedagog (mutaxassis) bilan ishlashning individual shaklini qo'llash, inson qobiliyatlarini rivojlantirish va undan foydalanish, bilim va ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlarning tajribalarini qo'llash.

Bundan tashqari, har bir topshiriq guruhi doirasida mantiqiy-izlanish, kognitiv-izlanish, tadqiqiy- ijodiy vazifalar belgilab beriladi. Ushbu tasnif bo'lajak o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonda turli muammolarni ijodiy hal qilishga tayyorlashga qaratilgan.

Ushbu dissertasiya tadqiqotida aynan shu metodika differensial yondashuv asosida ta'limni amalga oshirish uchun bo'lajak o'qituvchilarda suggestiv qibiliyatlarni rivojlantirish bilan bog'liq kasbiy-pedagogik vazifalar turlarini tasniflashda qo'llaniladi. Har bir topshiriq quyidagi turlarni o'z ichiga olgan: o'quv-mantiqiy izlanish, tadqiqot, ijodiy baholash va tuzatish. Bu vazifalarning universal turlari har bir topshiriq doirasida har bir mashg'ulot turining vazifalari bilan belgilanadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladilar.

Taklif etilgan vazifalarning har bir turiga tavsif beramiz.

**O'quv-mantiqiy vazifalar** talabalarga differensial yondashuv asosida o'qitish bilan bog'liq uslubiy tushunchalarning muhim xususiyatlarini tushunishga imkon beradi. O'quv-mantiqiy vazifalar deganda, biz talaba kasbiy va pedagogik vazifalarni hal qilishning an'anaviy sxemalari mantig'ini tushunadigan, ularning muqobil yechimlarini tahlil qiladigan va baholaydigan, o'z harakatlarining ma'lum bir to'plamini tanlaydigan vazifalarni tushunamiz. Ushbu turdagи vazifalar faoliyatga taqlid qilish bilan tavsiflanadi. Bunda pedagogik muammoni (vazifani) tuzatmasdan hal qilish uchun tavsiya etilgan sxemani tanlash imkoniyati bor. Chunki mantiqiy vazifalar o'quv materialini o'zlashtirishga ijobjiy ta'sir qiladi. Mantiqiy tayyorgarlik darajasi past talabaning faoliyat jrayonida muammolarga ko'plab duch kelishi, ularni hal qilolmasligi va oqibat kasbiy inqirozga yuz tutishi belgilanadi.

**O'quv-mantiqiy vazifalarga** yangi bilimlarni topish, ularni ta'lim sohasida izlash usullari kiradi. Ushbu turdagи vazifalar muammo bo'yicha haqiqiy materiallarni to'plashda alohida rol o'ynaydi. Agar o'quv va mantiqiy vazifalar reproduktiv faoliyat bilan bog'liq bo'lsa, mantiqiy vazifalar ko'proq izohlovchi (muammo bo'yicha

materialarni yig‘ish va tahlil qilish, uning nazariy tushunchasi, shuningdek, ushbu faoliyatni amalga oshirish jarayoni) hisoblanadi. Demak, mantiqiy-izlash muammolari deganda, biz ularni yechish natijasida talaba o‘zi uchun yangi bilimlarni yoki unga ma’lum bo‘lgan bilim va yechim usullari asosida hal qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

**Tadqiqotchilik vazifalari.** Differensial yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonida mazkur vazifa kognitiv va muammoli vazifaning ikkala xususiyatini ham o‘z ichiga olgan umumlashtiruvchi tushuncha hisoblanadi. Ushbu nuqtai nazardan hamjihatlik sifatida biz tadqiqot vazifalarini tushunamizki, bu jarayonda talaba o‘ziga ma’lum bo‘lgan va faoliyatni amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqqan holda foydalanishi hamda nazariy va amaliy shartlar asosida mustaqil xulosalarga kelish imkoniga ega bo‘ladi.

**Ijodiy vazifalar.** Differensial yondashuv asosidagi ta’limni amalga oshirishda bo‘lajak o‘qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirishni ta’minlaydigan muammoli vazifa mavjudligi ko‘rinadi. Muammo ma’lum bir muammoli vaziyatga asoslanganligi sababli ba’zi bir dialektik qarama-qarshiliklarning yechimini topishda, vaqt va ma’lumotlarning yetishmasligi holatida o‘rganiladigan muammo bo‘yicha muqobil javoblarni taklif eta olish bilan bog‘liq vaziyatlarni o‘z ichiga oladi. Ijodiy muammolarni hal qilishning o‘ziga xos xususiyatlariga biz individual fikrlash uslubini, ijodiy muammoning tarkibini qayta ishlashni, mustaqil izlanish shakllarini kiritamiz. Demak, bizningcha, ijodiy vazifalar talabaning ijodiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar tizimini shakllantiradi.

### Muhokama

Differensial yondashuv asosida baholovchi-tuzatish turidagi vazifalarni taklif etish bo‘lajak o‘qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonida reflektiv pozisiyani shakllantirish zaruriyati bilan bog‘liq bo‘lib, bu vazifani shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. O‘rganilayotgan faoliyatning introspeksiysi o‘zini o‘zi qadrlash bilan bog‘liq ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu vazifalar yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlash va tuzatish, faoliyatni amalga oshirishning barcha bosqichlarida samarali bo‘lgan uslublar bilan o‘zaro bog‘liqlik mexanizmini ta’minalashga xizmat qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni suggestiv pedagogik faoliyatga tayyorlashda biz quyidagi talablarni inobatga oldik:

- bo‘lajak o‘qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirish amaliyotini ommalashtirish, bu ishni samarali talqin qilish, konstruktiv-ijodiy darajalarga qaratilgan vazifalarni birlashtirish kerak;
- vazifalarning murakkabligi asta-sekinlik bilan o‘sib borishi kerak;
- tizim nazorat qilish va o‘zini o‘zi nazorat qilishning ob’yektiv usullarini amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratishi kerak.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarini rivojlantirish mezonini aniqlab olish ham maqsadga muvofiq.

**“Constructor” metodi.** Talabaning mavzu mohiyatini anglashini nazorat qilishga qaratilgan metod. Bunda talaba obrazlar vositasida mavzu mohiyatining o‘z faoliyatidagi ahamiyatini miyasiga (xayoliga) kelgan barcha konstruksiyalarni tasvirlaydi. **“Constructor” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat** 2.4-rasm

Tushunish bosqichi	Idrok etish bosqichi	Analitik bosqich	Mustaqil idrok etish bosqichi (idrok etgan mavzuni sxema, rasm, shakl ko‘rinishida taqdim etiladi)
O‘quvchilarga ruhiy va emosional-irodaviy ta’sir ko‘rsatish asosida o‘z ortidan ergashtira olish tamoyillarini sanab bering.	O‘quvchilarga ruhiy va emosionalirodaviy ta’sir ko‘rsatish tamoyillarining ahamiyatini nima bilan izohlanadi?	O‘quvchilarga ruhiy va emosionalirodaviy ta’sir ko‘rsatish qobiliyatlarini tarbiyalashda tamoyillarning ahamiyati.	O‘quvchilarga ruhiy va emosional-irodaviy ta’sir ko‘rsatish qobiliyatini rivojlantirish rivojlantirish nimaga asos bo‘ladi?

O‘qitishning muqobil metodlari sifatida ijtimoiy-pedagogik muammolarni hal etishda namoyon bo‘ladigan o‘ziga xos ijtimoiy-pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va ijtimoiy loyihalash metodi kabi muammoli metodlardan foydalilanildi.

Faol ta’lim metodlarining o‘ziga xosligi shundaki, ular tajribada quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- har bir o‘quvchini passiv bilim olish emas, balki faol shaxsiy bilish, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash va bu bilimlarni qayerda, va qanday maqsadlarda qo‘llash mumkinligini aniq tushunish uchun faol bilimga va kasbiy yo‘naltirilgan jarayonga jalg qilish;
- muayyan ma’naviy-ruhiy muammo bo‘yicha o‘z mustaqil, lekin asosli fikrini shakllantirish maqsadida axborotni qidirish, qayta ishslash va undan foydalanish;
- rivojlanayotgan ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni birgalikda hal qilish.

Differensial yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirish quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan:

- bo‘lajak o‘qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirish asosida o‘quvchilarnga ruhiy va emosional-irodaviy ta’sir ko‘rsatish Yu o‘z ortidan ergashtira olish ko‘nikmalarini hosil qilish;

- bo'lajak o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirish muammolarini hal qilish ko'nikmasi va qobiliyatini rivojlantirish;
- pedagogik muammolarni hal etish usullarini o'zlashtirishni va o'z-o'zini nazorat qilishni amalga oshirish.

Mustaqil ish - ta'limning majburiy elementi, bu insonning butun hayoti davomida bo'lajak o'qituvchining shaxsiy o'sishi uchun tayyorlashda alohida ahamiyatga ega ekanligini e'tiborga olib, mazkur tadqiqot ishida mustaqil ishslash vositalarining umumiyligi ta'lim sifatini ta'minlovchi omil sifatida aniqlanadi. Talabalarning mustaqil ishi oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifatini ta'minlash omili sifatida kelgusidagi mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini o'qitishga va o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorligi hamda barqaror ehtiyojini shakllantirish uchun inson salohiyatini ochib berishning asosiy sababi bo'lib, uni amalga oshirish uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish zarur.

### Xulosa

Differentsial yondashuv turli xil o'quvchilarni jalg qilish usuli sifatida ularning qiziqishlari, imkoniyatlari va bilimlarni o'zlashtirish darajalarini inobatga olgan holda quyidagicha guruuhlar kesimida ishlab chiqdik: Xulosa qilganda, bo'lajak o'qituvchilarda differentsial yondashuv turli xil o'quvchilarni jalg qilish usuli sifatida - nazariy, metodik va amaliy bilan o'quv-mantiqiy, izlanishli, ijodiy va baholashtuzatish xarakteridagi muayyan vazifalar to'plamini o'zaro bog'lash asosida amalga oshiriladi.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Ижтимоий педагогика" атамалар изоҳли луғати. Наманган.: НамДУ нашриёти. 2017. – Б. 48.
2. Құдратов Т. Нұтқ мәданияти асослари. –Тошкент.: Нұтқ мәданияти асослари. 1993. –Б. 79.
3. Березуцкая Ю.П. Подготовка организаторов образования к анализу управленческой деятельности на основе системы мотивационного программноцелевого управления: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Барнаул, 1999. – 17 с.
4. Майоров А.Н., Сахарчук Л.Б., Сотов А.В. Элементы педагогического мониторинга и региональных стандартов в управлении. – СПб., 1992. – 35 с.
5. Турғунов С.Т. Таълим муассасаси раҳбарлари бошқарув фаолияти самарадорлигининг назарий асослари // Касб-хунар таълими.– 2006. – № 1. – 55-б. 6. Saydullaeva, A. R. (2022). Gender Factors in Raising the Intellectual and Social Status of Women in Universities. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(10), 103107
7. Шодмонов Қ.О. Олий ўқув юртлари касб таълими йўналиши ўқувчиларини бошқарув фаолиятига тайёрлаш: Пед.ф.н. ...дисс. – Тошкент, 2008. – 201 б.
8. Madumarov, T., Haidarov, R., & Gulomjonov, O. (2023). IDEAS OF HUMANISM IN THE WORK OF ALISHER NAVOI. Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences, 3(2), 116118.